

Nuriddin Ochilovich Yusupov

Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi
nuriddinyusupov343@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada nemis adabiyoti tarixi va fransuz adabiyoti tarixida Homerning “Iliada” dostoni tarjimalari to‘g‘risidagi XVII asrga qadar bo‘lgan ma‘lumotlar qisqa tarzda bo‘lsada to‘plandi. Nemis va fransuz tilidagi tarjimalar va tarjimonlarga xos xususiyatlar ta‘kidlab o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Cherkov adabiyoti, Notker, Aristotel, David psalmlari, Vergiliy, “Iveyna” romani, Reformasiya, Renessans, “Iliada”, patrisiy, Teofrast.

ПЕРЕВОДЫ «ИЛИАДЫ» НА НЕМЕЦКИЙ И ФРАНЦУЗСКИЙ ЯЗЫКИ

Аннотация: В этой статье кратко изложена история немецкой литературы и история французской литературы до семнадцатого века а именно, о процессе переводах Гомеровского эпоса «Илиада». Выделены особенности немецких и французских переводов и переводчиков.

Ключевые слова: церковная литература, Ноткер, Аристотель, Псалмы Давида, Вергилий, роман «Ивейна», Реформация, Возрождение, «Илиада», патриций, Теофраст.

TRANSLATIONS OF THE ILIAD INTO GERMAN AND FRENCH

Abstract: This article summarizes the history of German literature and the history of French literature before the seventeenth century, namely, the process of translations of Homeric's epic Iliad. The features of German and French translations and translators are highlighted.

Keywords: church literature, Notker, Aristotle, Psalms of David, Virgil, novel "Iveina", Reformation, Renaissance, "Iliad", patrician, Theophrastus.

Kirish

X–XI asrlar chegarasida Sant Hallen monastrining ruhoniysi Notker (950-1022) tomonidan o‘z shogirdlarining hayotini engillashtirish maqsadida, uning o‘z so‘zlariga ko‘ra: “haliga qadar ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan” bir ishga qo‘l uradi, ya‘ni lotin tilidagi pedagogik ruhdagi cherkov adabiyotlarini nemis tiliga o‘giradi.

Notker Aristotel, Marsian Kapella, Boesiy, shuningdek, David psalmlarini, Vergiliyning "Bukolika"sini ham o‘z ona tiliga o‘giradi. Shuningdek, o‘sha paytlarda nemis tiliga fransuzlarning “Roland haqida qo‘shiq”, “Troya haqida roman”, “Iveyna” va boshqa romanlari ham tarjima qilinadi. Keyinroq, 1465 yili nemis tiliga anonim tarzda bo‘lsa-da Injil ham tarjima etiladi. Ayniqsa, muqaddas kitobning nemis tiliga tarjimasi katta yangilik sanalib, Reformasiya davriga ilk qadam bo‘lgan edi.

Adabiyotlar tahlili

Fransuz uyg‘onish davrining yozuvchi va faylasufi Mishel Monten Amio to‘g‘risida, jumladan uning Plutarxdan qilgan “Axloqnomalar” kitobining tarjimasi haqida shunday deb yozadi: “Lekin, Amiodan mening eng minnatdor bo‘lganim - uning millatimiz, Vatanimiz uchun qilgan nihoyatda qimmat va munosib tuhfasini, ushbu kitobni topib, tarjima qilganligidir. Biz, johillar, faqat esnab o‘tirishga mahkum bo‘lardikki, agar bu kitob biz botib qolgan jaholat qorong‘uligidan bizni olib chiqmaganida, faqat uning mehnati bo‘lgan shu kitob sababli biz bugun fransuzcha yozib, ham gapira olayapmiz ...[5.63]”

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

1714 – 1716 yillari barcha savod bilgan fransuzlar Homer “Iliada” dostoni tarjimasining tamoyillari ustida Antuan Udar de la Mott va Anna Dase tomonidan olib borilayotgan bahs-munozarani kuzatib bordilar.

Antuan Udar de la Mott (fr. Antoine Houdar de la Motte), (1672-1731) fransuz akademiyasining a'zosi, shoir, dramaturg edi. Anna Dase (fr. Anne Dacier), (1654-1720) esa, filolog, tarjimon edi. 1681 yildan boshlab Anna Dase Sapfo, Anakreon she'rlari, Aristofan, Terensiy, Plavt pesalari va nihoyat Homerning “Iliada” va “Odissey” dostonlarining tarjimasiga qo‘l urgan edi.

Lamottning ijodiy biografiyasidagi eng ko‘zga ko‘ringan nuqta, Homer “Iliada” dostoni tarjimasini tufayli edi. 1699 yili Anna Dase tomonidan “Iliada” dostonining nasriy tarjimasini nashr etildi. Homer eposining tarjimasini fransuz jamiyatining adabiy jamoatchiligi o‘rtasida ma’lum munozaralarga sabab bo‘ldi. 1714 yili Lamott Homer “Iliada” dostonining she'riy yo‘l bilan qilingan tarjimasini e’lon qildi. Uning tarjimasini biroz qisqartirilgan, ya’ni dostonning 24 qo‘shig‘i 12 qo‘shiqqa keltirilgan edi. Lamott dostoniga yozilgan so‘zboshida (fr. Discours sur Homère) o‘zining quyidagi mulohazalarini keltiradi. Uning yozishicha: hozirgi adabiyot, antik adabiyotdan ancha ilgari ketdi, shuning uchun ham antik davrning buyuk asarlarini hozirgi davrga moslashtirish kerak, buning uchun esa uslub va shaklni soddalashtirish kerak.

Lamottning bu fikriga Dase juda qisqa, lekin keskin tarzda “Didning buzilish sabablari”- degen pamflet bilan javob qaytardi. Lamott esa bahsning keskinlashib ketishini istamagan holda (fr. Réflexions sur la critique), - “Tanqidga e’tiroz”-nomli falsafiy kitobini 1716 yili e’lon qildi. Nihoyat, Jan Terrason, Klod Byufe kabi tanqidchilar ularni murosaga keltirdilar.

Biroq, bahslashuvchilar o‘z fikrlarida qolgan edi. Masalan, Udar de la Mott shunday deydi: “Men tarjimon sifatida uch narsaga intildim: aniqlik, tushunarlik va yoqimlilikka... Men tarjima yoqimli bo‘lishini istadim, buning uchun esa, Homer davriga xos bo‘lgan tushunchani o‘zgartirish kerak edi...”

Anna Dase esa, o‘z tanqidlari bilan uning tarjimasini yo‘qqa chiqardi, u shunday deydi: “agar Lamott nimaga intilgan bo‘lsa, xuddi shu narsaga eta olmadi. O‘z fikrlarini Homer fikrlarining o‘rniga qo‘yib, Homer obrazini yumshatib, uning xarakterini buzdi, tabiiylikdan judo qildi [6.74]”. Oradan bir necha yil o‘tgandan so‘ng 1719 yili Jan Batist Dyubo (fr. Jean-Baptiste Dubos) singari tanqidchilar bu munozaraga yakun yasab, o‘zlarining ob’ektiv xulosalarini [7.32] berdilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada Homerning “Iliada” dostoni tarjimalarining nemis va fransuz tillarida XVII asrgacha bo‘lgan davrdagi rivojlanishi tahlil qilingan. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

Tarixiy-solishtirma va Manba tahlili metod

Bu metod yordamida nemis va fransuz adabiyoti tarixida Homerning “Iliada” dostoni tarjimalarining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Tarjimachilarning uslubi va maqsadlari, davr talablariga muvofiq tarjimalardagi o‘zgarishlar tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq holda yoritildi. Tarjimachilik tarixiga oid muhim yozma manbalar, jumladan, asarlar, tarjimalar va ularning izohlaridan foydalanildi. Shu orqali turli davrlardagi tarjimalarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, ularning asl matnga yaqinlik darajasi baholandi.

Adabiy-tahliliy va Taqqoslash metodi

Homerning “Iliada” dostoni tarjimalaridagi poetik, uslubiy va mazmuniy xususiyatlar adabiy-tahliliy yondashuv yordamida o‘rganildi. Nemis va fransuz tarjimonlarining tarjima texnikasi, asarning mazmunini o‘zgartirish yoki moslashtirish tamoyillari tahlil qilindi. Nemis va fransuz tillaridagi

tarjimalar bir-biriga qiyoslanib, ularning o'zaro farqlari va umumiy jihatlari ko'rsatib berildi. Xususan, Notker va Iohann Reksiusning tarjimalari nemis tarjimachilik an'analari uchun, Anna Dase va Antuan Udar de la Mottening tarjimalari esa fransuz adabiyoti uchun naqadar muhim ekani aniqlashtirildi.

Falsafiy yondashuv Tarjima faoliyatiga tarixiy va madaniy davrlarning ta'siri falsafiy nuqtayi nazardan baholanib, tarjimalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy, adabiy va madaniy kontekstda tarjimalarning rivojlanishiga ta'sir qilgan omillar tahlil etilib, Homer asarlarini boshqa tillarga o'girish jarayoni turli davrlardagi ilmiy va ijodiy tafakkurning o'ziga xosligini ochib berdi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot jarayonida Homerning "**Iliada**" dostoni tarjimalarining nemis va fransuz tillaridagi rivoji har tomonlama tahlil qilinib, quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Tarjimachilik rivojlanishining tarixiy bosqichlari

- a) Nemis va fransuz tillarida Homerning "Iliada"si XVII asrgacha ko'proq diniy va siyosiy maqsadlarga moslashtirilgan tarzda tarjima qilingan.
- b) Nemis tarjimonlari antik davr matnlariga yaqinroq bo'lishga intilib, asliyatdagi shakl va mazmunni saqlashga e'tibor qaratgan. Masalan, Notker tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarda dastlabki yondashuvlar aniq seziladi.
- c) Fransuz tarjimonlari, aksincha, asarni o'z davrlarining adabiy-estetik talablari asosida moslashtirib, mazmunni qayta talqin qilishga moyillik ko'rsatgan. Bu, ayniqsa, Antuan Udar de la Mottening asarlarida yaqqol namoyon bo'lgan.

2. Nemis va fransuz tarjimalarining uslubiy farqlari

- a) Nemis tarjimalarida grammatika va poetika jihatidan asliyatga maksimal darajada moslikka erishish maqsad qilingan. Ular ko'proq ilmiy-nazariy xarakterga ega bo'lgan.
- b) Fransuz tarjimonlari esa badiiy ifoda va o'quvchi uchun qulayroq tildagi uslublarni afzal bilgan. Bu tarjimalar ko'pincha dramatik va epik janrlarga mos ravishda o'zgartirilgan.

3. Madaniy va falsafiy omillarning ta'siri

- a) Nemis tarjimalariga antik madaniyatga hurmat va o'tmish yodgorliklarini saqlab qolish intilishi ta'sir qilgan. Bu tarjimalar ko'proq ilmiy ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning badiiy sifati ba'zan ikkinchi o'rinda bo'lgan.
- b) Fransuz tarjimalarida, ayniqsa XVII asrda, madaniy uyg'onish va estetik talablarga e'tibor ko'proq bo'lgan. Shu bois Homerning asaridagi qahramonlik va dramatik sahnalar zamonaviy o'quvchi didiga moslashtirilgan.

4. Tarjimalarning jamiyat va madaniyatga ta'siri

- a) Nemis tarjimalari ilmiy va adabiy tillarning boyishiga sezilarli hissa qo'shgan. Xususan, Homer asarlarining tarjimasi orqali nemis tili poetik ifodalarga boyitilgan.
- b) Fransuz tarjimalari esa asarlarni ommalashtirishda muhim rol o'ynagan. Ushbu tarjimalar fransuz o'quvchilarining antik madaniyat va mifologiya haqidagi bilimlarini kengaytirgan.

5. Tarjima texnikalaridagi o'ziga xosliklar

- a) Nemis tarjimonlari o'z asarlarida metrikani va asliyatning poetik tuzilishini saqlashga harakat qilishgan. Bu orqali ular asarning ma'naviy-estetik kuchini ta'minlashga intilgan.
- b) Fransuz tarjimonlari esa qisqartmalar, qo'shimchalar va zamonaviy iboralar qo'shib, asar mazmunini yangicha talqin etgan. Bu usul fransuz tarjimonlarining ijodiy yondashuvining natijasi bo'lgan.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

XV asrdan boshlab nemis ma'rifatparvarlarining faoliyatida Renessans an'analari ko'rina boshlaydi. Grek va lotin tilidan qilinayotgan tarjimalar markaziy o'rinni egallaydi. Lekin gohida tarjima mahorati etishmaganligi vajidan, tarjima qilingan kitoblar asl original tilning sintaktik o'ziga xosliklari va haddan ziyod kalkalarga to'lib ketadi.

“Iliada”ning nemis tiliga birinchi tarjimasini 1584 yili Iohan Reksius (1563-1598) tomonidan amalga oshirilgan. Bu tarjima barcha nemischa tarjimalar orasida birinchi ekanligi bilan ajralib turadi, chunki “Iliada” dostoni nemis klassik adabiyoti uchun hamisha katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Iohan Reksius tarjimasining qo'lyozmasi germanshunoslik bo'yicha mutaxassis Richard Navalda tomonidan Avliyo Florian monastridan 1929 yili topilgan. Tadqiqot natijasida shu narsa isbotlanganki, Reksius tomonidan qilingan tarjima shunchaki tarjima uchun tajriba mashqi emas, balki haqiqiy adabiy asar sifatida shakllantirilgan. Yana shu narsa isbotlanganki, Reksius [1.9] tarjima uchun asosiy, asl matn sifatida kitobning lotin tilidagi muallifi Rafael Mafayga daxldor matndan foydalangan.

Yana ham aniqrog'ini aytganda, Germaniyada 1537 yili Homerning “Odissey” dostoni nemis tiliga proza yo'li bilan tarjima qilingan. Bu ishni Myunxen shahri tarixchisi Simon Shaydenraysser amalga oshirgan. “Iliada” tarjimasiga esa faqat XVII asrning boshlaridagina etib kelganlar. Uni Iogann Shprengen she'riy yo'l bilan tarjima qilgan. Biroq bu tarjimalar o'z vaqtida chop qilinmagan.

Nemis adabiyoti tarixida antik adabiyot targ'ibotchilari sifatida biz ko'plab shoir va yozuvchilarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, ulardan biri Villibald Pirkheymerdir. (1470—1530), U nyunberglik patrisiy, taniqli kishilardan biri sifatida qadimgi grek tilini yaxshi bilar edi, shuning uchun ham ellin falsafasi va adabiyotini ommalashtirish uchug ko'p xizmat qilgan kishilardan edi. Villibald Pirkheymer Teofrastning “Xarakterlar” asarini nemis tiliga o'g'irgan. U Platon, Ksenofont, Plutarx va Lukian ijodini lotin va nemis tillariga tarjima qilgan edi. Bundan tashqari qadimgi davr Rim shoirlarining ijodlari tarjimasini bilan Henrich Heyne, Eduard Fridrih Merike, Iohann Volfgang Hete, Fridrih Brext, Stefan Heorge, David Hilbert va boshqalar shug'ullanishgan.

XV asrning o'ttizinchi yillaridan boshlab Germaniyada Niklas fon Vile (1410-1497) ma'rifatparvar sifatida ko'zga ko'rinib qoldi. U o'z ona tilini “san'at va to'g'rilik”dan yiroq hisoblab klassik matnlar agar tarjima etiladigan bo'lsa, “so'zma so'z”, ya'ni: (wort uss wort) tarzda tarjima qilinishi zarur degan xulosaga keldi. Bunday pozisiya o'sha davrda nemis ma'rifatparvarlari orasida eng tan olingan vaziyat sifatida ommalashdi va Vile tarjimalarining tili esa eng yuqori uslub namunasi sifatida barcha tarjimonlar uchun ibrat darajasiga chiqdi.

Ammo ushbu uslubning ko'p sonli raqobatchilari ham yuzaga keldi. Masalan, Ezop masallarining tarjimoni yozuvchi Henrich Shteynxevel (1412-1482), original matnni so'zma-so'z emas, balki mazmuniga ko'ra qadam ba qadam tarjima etishni ma'qullab chiqdi. Uning tarjimalari tiliga xos bo'lgan xususiyatlar: o'zining emin-erkinligi, oddiyliigi, asl matn g'oyalarining qayta jonlantirishga bo'lgan intilishi bilan ajralib turar edi.

Xuddi shu kabi tamoyillarni nemis tilining yana bir boshqa tarjimoni Albrext fon Eyb (1420-1475) ham qo'llab quvvatlagan edi. U o'z tarjimalarida, masalan rimlik Plavt komediyalari personajlarining nutqlarini lotin tilidan imkon qadar, maksimal darajada oddiy, odatdagi nemis tiliga yaqinlashtirib tarjima qilgan edi. U o'z tarjimalarida nemischa maqol va shu tildagi boshqa xos so'zlarni, maishiy leksikani keng qo'llay boshladi, va hattoki lotincha ism va lavozim nomlarini ham nemischasiga almashtirib originalni ham nemischa qildi-qo'ydi. Albatta, bu kabi voqelik ko'pchilikning e'tiroziga sabab bo'lar edi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Yana bir esda qolarli jihat, tarjimachilik ishining o'sib borishi bilan Martin Lyuter tomonidan eng mashhur va muqaddas diniy adabiyot tarkibiga kiruvchi kitoblar, jumladan "Yangi vasiyat" 1521 yili va "Eski vasiyat" 1534 yili nemis tilining o'sha davrdagi zamonaviy lahjasiga o'girildi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Germaniyada tarjima masalasiga nisbatan alohida qiziqish paydo bo'la boshladi. Evropa adabiyotiga xos asarlar bilan tanishishning yangi usuli, ya'ni: ikkinchi qo'ldan emas, balki birinchi qo'ldan olish, tarjimada to'g'ridan-to'g'ri original bilan bog'lanish olqishlana boshladi. Shu tariqa, tarjimachilik va tarjima adabiyoti ta'sirida ma'lum fikrlar va idrokni shakllantirgan, yuzaga keltirgan nemis tafakkurida ko'tarilish paydo bo'ldi. Bu ko'tarilish hatto, keyingi yuz yilliklarning mazmunini belgilab berdi. Shuning uchun ham Breytinher, Klopshtok, Hyorder singari ma'rifatparvarlarning faoliyati xuddi "birinchi cho'qqi" kabi xarakterlanadi.

Simon Shaydenraysser tomonidan amalga oshirilgan "Iliada"ning she'riy tarjimasini 1610 yili kitob tarzida e'lon qilingan. Bu vaqtlarda Homer jamoatchilikning e'tiboridan chetda edi. Uning "Iliada kabi" dostonlari ham qaytatdan nashr qilinavermas edi. XVII asrga kelib xalqning ongi o'sdi. Homerning asarlari nasriy yo'l bilan ham, she'riy yo'l bilan ham tarjima etila boshlandi. Masalan, G.-A. Byurger, o'sha mashhur "Baron Myunxgauzenning ajoyib sarguzashtlari" kitobining muallifi, u 1771 yili "Iliada" dostonidan parchalarni nemis tiliga she'riy yo'l bilan yamb vaznida o'girdi.

1781 yili esa I. H. Foss (nem. Johann Heinrich Voss (Voß); (1751-1826) tomonidan Homerning "Odissey" dostoni she'riy hegzometr vaznida qadimgi yunon tilidan nemis tiliga o'girildi. Uning nomi antik ijodkorlar asarlarining tarjimoni sifatida tez-tez omma e'tiboriga tusha bordi. 1793 yilga kelib esa Iogan Haynrih Foss[2.31] tomonidan Homerning "Iliada" dostoni qadimgi grek tilidan nemis tiliga tarjima etildi. Shu narsani ham alohida ta'kidlamq joizki ayni shu tarjima nemis tilidagi klassik va zamonaviy tarjima sifatida eng yaxshi deb topildi. Bundan tashqari Ovidiy, Gorasiy, Vergiliy va boshqa rim san'atkorlarining she'rlari ham Foss tomonidan nemis tiliga o'girilgan edi.

Shu tariqa XVIII asrga kelib, Homerning "Iliada" va "Odissey" dostonlari qayta va qayta yangi zamon xalqlarining tillariga o'girilib, muhtasham va umri boqiy asarlar qatoriga kirib boraverdi.

Fransiyada XVI asrlardan boshlab antik mualliflarning asarlaridan dastlabki tarjimalar paydo bo'la boshladi. Bu tarjimalarda birinchi navbatda asarning amaliy va hayotiy foydali jihatlari hisobga olindi.

Shuni aytish kerakki, fransuzlar Homer "Iliada"sining bir necha qo'shiqlari tarjimasini XVI asrning birinchi yarmida, aniqrog'i 1530 yili o'z ona tillarida o'qishga muvaffaq bo'lganlar[3.56]. Ushbu dastlabki qo'shiqlar tarjimalari (M. Hugues Salel) Hages Salel tomonidan tarjima qilib boshlangan, lekin oxiriga etkazilmagan. Sal keyinroq, ya'ni 1577 yili "Iliada" tarjimasiga Amadis Jamin ham bosh qo'shgan, u dostonning keyingi o'n uch qo'shig'ini tarjima qilgan. Shu tariqa Homerning "Iliada" dostoni to'liq va "Odissey"ning dastlabki uch bobi fransuz tiliga tarjima qilingan. Salelning hayotlik paytida "Iliada" dostonining to'liq tarjimasini 1584 yili [4.89] kitob tarzida e'lon qilingan.

Antik davrga oid matnlarning birinchilardan bo'lib tarjima qilgan Amio Jakdir. (Amyot, Jacques) (1513–1593). U Fransiyadagi kommuna hisoblanadigan – Oser shaharchasining episkopi edi. U asosan klassik matnlarni tarjima qilar edi. U Sisiliyalik Diodorning "Tarixiy kutubxona" va Heliodorning ikki romani – "Efiopika", "Dafnis va Xloya" asarlarini fransuz tiliga tarjima qildi.

Lekin Amioga mashhurlikni yunon klassiklarining asarlaridan qilingan tarjimalar olib keldi. U Plutarxning "Hayotiy kechmishlar qiyosi"-kitobini 1559 yili chop ettirdi. Amio ushbu kitob tarjimasini ustida 1542 yildan beri ishlayotgan edi va uni "Les vies des hommes illustres grecs et romaines" ("Yunonistonlik va rimlik mashhurlarning hayotiy kechmishlari") – degan nom bilan e'lon etdi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Shuningdek, u Plutarning (Oeuvres morales, 1572), ya'ni "Axloqnomalar" kitobini ham o'z tarjimasida chop ettirdi.

Amio odatda o'z tarjimalarini turli manbalarning izohlari filologik qaydnomalar bilan boyitib borar edi. Amio o'z zamondoshlarini antik davrning buyuk shaxslari bilan tanishtiribgina qolmadi, balki yangi etuk asarlarni tarjima qilib fransuz tili taraqqiyotiga ham xizmat qildi. Tarjima uslubining erkinligi va Amioga xos sinchkovlik va e'tiborlilik tufayli qadimgi davr, yangi zamon ma'naviyatiga kelib qo'shildi.

Xulosa

Homerning "Iliada" dostoni tarjimalari nemis va fransuz madaniyati, adabiyoti va tarjima an'analarning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Homerning "Iliada" dostoni tarjimalari orqali nafaqat antik madaniyatga hurmat saqlanib qolgan, balki nemis va fransuz tillarida adabiyot va tarjimashunoslik sohalarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatilgan. Bu jarayon xalqlar madaniyati va o'zaro adabiy aloqalarining boyishida muhim o'rin egallaydi.

Shubhasiz, nemis adabiyoti tarixi va fransuz adabiyoti tarixini qarab chiqsangiz Homerning "Iliada" va "Odissey" dostonlarining keyingi davrlarda ham amalga oshirilgan ko'plab tarjimalari borligini kuzatishingiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Гомер. *Илиада* / Пер. с древнегреческого Н. И. Гнедича. — М.: Эксмо, 2010.
2. Мирмухамедов К. *Iliada* (Tarjima va tahlil). — Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 1995.
1. Винокуров В. *Поэтика Гомера и её влияние на европейскую* Нуриддин Очилович Юсупов, [Антик давр юнон адабиёти ва Хомер ижоди тўғрисида Хеорг Фридрих Хегелнинг фикрлари](#), ООО «Open science»,
2. Rustamov Alisher Abduhakimovich 2023/6 International Journal of Word Art ISSN 2181-9297 .6.2 147-150 Doi Journal 10.26739/2181-9297.
3. Rustamov Alisher Abduhakimovich Guidelines and Resources For Teaching Foreign Languages in UpperLevel Courses Based on Real-World Experience. JOURNAL OF INTELLECTUAL PROPERTY AND HUMAN RIGHTS, ISSN: 2720-6882. <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr>.
4. [ROLE OF INDUSTRIAL PRODUCTION IN ENSURING ECONOMIC SECURITY AND DEVELOPING ENTREPRENEURSHIP IN REGIONS](#) M Olimov, A Rustamov. Economics and Innovative Technologies.
5. Ilham MAMASOLIYEV. [GAZETA MATNLARIDA QO 'LLANILADIGAN O 'ZLASHMALARNING SO 'Z YASALISHIDAGI DERIVATSION VAZIFALAR](#). «АСТА NUUZ».
6. Ilham MAMASOLIYEV. Новые слова и сочетания в русском языке в период распространения коронавирусной инфекции (на материале средств массовой информации). Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz ООО Tadqiqot город Ташкент.
7. MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O'G'LI, ЎЗБЕК ТИЛИДА РАВИШ/СИФАТ ТИПИДАГИ ЛЕКСЕМАЛАРДА МАЗМУНИЙ СИНКРЕТИЗМ TO Muydinovich - Philological research: language, literature ..., 2024 - journaltersu.uz

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

8. Mardiyev Begali Xudoyqul o'g'li, IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARDA IZHORLI QURILMANING O'RNI, SamDU Urgut filiali maktabgacha ta'lim va pedagogika kafedrası mudiri, dotsent).
 9. MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O'G'LI, ALISHER NAVOIYING «HAYRATUL-ABROR» DOSTONIGA ISHLANGAN «HAMMOMDAGI UCHRASHUV» MINIATYURASIGA SHARH VA NAVOIY.
 10. IT Babakulov, Derivative Meanings in Russian and Uzbek Languages as Universal Conceptual Concepts.
 11. ИТ БАБАКУЛОВ, Словообразовательные особенности русского и узбекского языков в аспекте гендерной асимметрии.
 12. Games in teaching foreign languages and methods of conducting at the initial stage in secondary school NO Yusupov, NO Yusupova, MM Eshmamatov Science and Education 2 (Special Issue 2), 185-189, 2021
 13. Антик давр юнон адабиёти ва Ҳомер ижоди тўғрисида Ҳеорг Фридрих Ҳегелнинг фикрлари NO Юсупов Science and Education 2 (Special Issue 2), 190-196, 2021
 14. MODERN INFORMATIONAL AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR STUDENTS IN TEACHING ENGLISH NO Юсупов Актуальные научные исследования в современном мире, 266-270, 2020
1. V. A. Zhukovsky, Nuriddin Ochilovich Yusupov, AWARENESS ABOUT THE HOMER OR THE SUBJECTIVE AND COGNITIVE ASPECTS OF THE PROBLEM, ResearchJet Journal of Analysis and Inventions: Vol. 2 No. 05 (2021): rjai

